

**MILLIY TILSHUNOSLIGIMIZ TARAQQIYOTIDA ANTROPOTSENTRIK
PARADIGMANING O’RNI**

Xudoyberganova D. S.,
*f.f.d., O’zR FA O’TAFI,
O’zbekiston*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o’zbek tilshunosligida lingvistik antropotsentrizmning shakllanishi va hozirgi taraqqiyoti yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *antropotsentrizm, pragmatik va kognitiv tilshunoslik, assotsiativ yondashuv.*

Аннотация: В данной статье описывается формирование и современное развитие языкового антропоцентризма в узбекском языкознании.

Ключевые слова: антропоцентризм, pragmaticheskaya и kognitivnaya lingvistika, assoziativnyy podkhod.

Abstract: This article highlights the formation and development of antroposentrik paradigm in Uzbek linguistics.

Key words: anthropocentrism, pragmatic and cognitive linguistics, associative approach.

XX asrning so‘ggi choragida dunyo tilshunosligida lisonni antropotsentrik paradigma asosida o‘rganishga katta e’tibor qaratila boshlandi. Prof. Sh.Safarov antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: “Sistem-struktur paradigma o‘zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning “atomistik”, ya’ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo‘lini tutdi. ... Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma'lum bo‘ldi: bu yo‘nalishlarda til o‘z egasi - insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo‘ldi.”[Safarov, 2008]

XXI asrning dastlabki yillaridan o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma asosida bajarilgan tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu ishlar, asosan, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvistik pragmatika, psixolingvistika yo‘nalishlarida amalga oshirildi. Bu tadqiqotlar, garchi ularda aynan antropotsentrik paradigmaga munosabat bildirilmagan bo‘lsa-da, o‘zida ushbu paradigma tamoyillarini aks ettirgan dastlabki ishlar hisoblanadi. [Mo‘minov, 2000]

Prof. Sh.Safarovning 2006- yilda nashr qilingan “Kognitiv tilshunoslik” nomli monografiyası lingvokognitologiyaga oid nazariy qarashlarning o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishida muhim qadam bo‘ldi. [Safarov, 2006] Ushbu asarda kognitiv tilshunoslikning predmeti va vazifalari, konseptning lisoniy voqylanishi jarayoni, ssenariy, skript, freym, geshtalt kabi kognitiv tuzilmalar, shuningdek,

lisoniy-kognitiv faoliyatning milliy-madaniy xususiyatlari hamda lisoniy hodisalarning kognitiv tahlili haqida dunyo tilshunosliklarida mavjud bo‘lgan nazariy qarashlar haqida bahs yuritiladi.

O‘zbek tilshunosligida til birliklari XXI asr boshlaridan bevosita antropotsentrik paradigma asosida tadqiq etila boshlandi. Bu borada amalga oshirilgan ishlar kognitiv tilshunoslik nazariyasi, matnning sotsiolingvistik, pragmalingvistik xususiyatlari, uning diskursiv-kognitiv jihatlari, publitsistik matnning mazmuniy persepsiysi, o‘zbek bolalar nutqining lingvopragmatik tadqiqi hamda antropotsentrik paradigmanning nazariy muammolariga bag‘ishlangan [Mo‘minov, 2000].

Matnning kognitiv tahlili borasida S.O‘.Boymirzayevaning doktorlik dissertatsiyasi muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotning 1-bobi 2-bo‘limi “kognitiv tilshunoslikka xos tadqiq usullarini matn tahliliga tatbiq qilish masalasiga bag‘ishlanadi” [Boymirzayeva, 2010] Muallif matnni kognitiv-diskursiv jarayon sifatida baholab, lisoniy voqelanish negizida kognitiv tuzilmalar turishini ta’kidlaydi.

O‘zbek tilshunosligida matn antropotsentrik paradigma asosida tahlil etilgan dastlabki ishlardan biri I.A.Azimovaning “O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi” nomli dissertatsiyasi hisoblanadi. [Azimova, 2008] Azimova Iordaning mazkur ishi o‘zbek tilshunosligida gazeta matnlari persepsiysi birinchi marta psixolingvistik tajribalar asosida tadqiq etilganligi bilan e’tiborga molikdir.

M.X.Hakimovning “O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy masalalar birinchi marta monografik aspektida tadqiq etildi [Hakimov, 2001]. Mazkur tadqiqotda lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umumnazariy masalalari, ushbu yo‘nalishning tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlari bilan munosabati haqida bahs yuritilgan, matn semantik tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o‘zbek tilidagi matnlar misolida tadqiq etilgan.

O‘zbek tilshunosligida pragmalingvistika yo‘nalishining rivojida prof. Shahriyor Safarovning “Pragmalingvistika” nomli monografiyasi alohida o‘rin tutadi [Safarov, 2008]. Monografiyada olimning til va nutq dixotomiyasi, lisoniy faoliyat, lisoniy qobiliyat, diskurs kabi tushuncha va terminlar haqidagi jahon tilshunosligida mavjud nazariyalar xususida bahs yuritilgan.

M.Qurbanova tomonidan amalga oshirilgan doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek bolalari nutqining pragmatik xususiyatlari ochib berildi. Tadqiqotda bolalar tomonidan hosil qilingan nutqiy akt turlari tasniflangan, bolalar nutqida deyktik

vazifa bajaruvchi til birliklari aniqlanib, presuppozitsiya, konnotatsiya va baho munosabatining ifodalanishi yoritib berilgan [Qurbanova, 2018].

Keyingi yillarda antropotsentrizmning umumnazariy masalalariga bag‘ishlangan bir qator maqolalar ham e’lon qilindi. Jumladan, “O’zbek tili va adabiyoti” jurnalida N.Mahmudov, E.Begmatov, A.Nurmonov, A.Rahimovning ushbu sohaga aloqador bo‘lgan maqolalari chop etildi. Mazkur maqolalar o’zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma borasidagi ilmiy tushunchalarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbek tilshunosligida antropotsentrik tadqiq tamoyillari lug‘atlarda ham o’z aksini topa boshladi. Mazkur lug‘atlar turg‘un o’xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari yoritib berilishi [Mahmudov N., Xudoyberganova, 2013], lingvomadaniyatshunoslikka oid terminlar ma’nosining izohlab berilishi [Xudoyberganova, 2015] hamda o’zbek tili birliklariga assotsiativ yondashuvi [Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev, 2019] bilan diqqatga sazovordir.

O’zbek tilshunosligida antropotsentrik tadqiq tamoyillari tobora chuqurlashib bormoqda. Bu esa tilshunosligimizning dunyo lingvistikasidagi eng yetakchi qarashlar bilan hamqadam bo‘layotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I.A. O’zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. - Toshkent: O’zMU, 2008. - 24 b.;
2. Begmatov E. Antroponimlar - antropotsentrik tadqiq obyekti // O’zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2013. - № 3. - B. 35-39.
3. Boymirzayeva S.O’. O’zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. fan. d-ri ... dis. - Toshkent: O’zR FA TAI, 2010. - 320 b.;
4. Hakimov M.X. O’zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ... dis. - Toshkent: O’zR FA TAI, 2001. - 283 b.;
5. Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. Ozbek tili assotsiativ lugati. - Toshkent, 2019. - 331b.
6. Mahmudov N. O’xshatishlar - obrazli tafakkur mahsuli // O’zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2011; Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O’zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2012. - № 5. - B. 3-16;
7. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O’zbek tili o’xshatishlarining izohli lug‘ati. - Toshkent: Ma’naviyat, 2013. - 320 b.
8. Mo’minov S.M. O’zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri ... dis. avtoref. - Toshkent: O’zR FA TAI, 2000. - 47 b.

9. Nurmonov A. Immanentlikdan kognitivlikka // O'zbek tili va adabiyoti. - 2009. - №6.- B. 104-107;
10. Rahimov A. Tilni paradigmalar asosida o'rganish muammolari // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2012. - № 2. - B. 20-25. - № 3. - B. 19-24;
11. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" , 2008. - B. 35.
12. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. - Jizzax: Sangzor, 2006. - 91 b.
13. Qurbonova M. O'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri ... diss. - Toshkent, 2018. - 240 b.
14. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015 - 46 b.